

## Prorektor bilan talaba-yoshlarning uchrashuvi

Bugun institutimizning 2 ma'ruzalar zalida "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti 1-kurs talaba yoshlari bilan Institut Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor R.Choriev uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvni fakultet dekani Sh.Narbaev kirish so'zi bilan ochib berib, talabalarni institut ichki tartib-qoidalari, muomala, kiyinish madaniyati va talablar haqida talabalarga hayotiy misollar bilan tushuntirish va tavsiyalar berib o'tdi. Shundan so'ng institut Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor R.Choriev o'z nutqida ta'lim muassasasida tahsil olayotgan har bir talaba ongida sog'lom ma'naviy va ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish. Uning nufuzi hamda obro'-e'tiborini asrab-avaylash, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi avvalambor, odob-axloq qoidalariga rioya etuvchi talaba-yoshlarni tarbiyalashi zarur.



Har bir talaba institutning ichki tartib qoidalarini, xususan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, jamiyat, davlat va oila oldida o'z mas'uliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri anglaydigan, vatanparvar va xalqparvar, tashabbuskor va tadbirkor, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan hamda yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan irodasi baquvvat, iymoni butun va vijdoni uyg'oq mutaxassislarning bo'lishlari lozimligi. Shuningdek, talaba-yoshlarga ular ongida ma'naviy immunitetini shakllantirish, saqlash va himoya qilish, yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan zo'ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarning oldini olish, jumladan, yoshlarni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan, tuban "ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoya qilishga ko'maklashishdan iboratligi to'g'risida tushunchalar berildi.



Institut prorektori R.Choriev 1-kurs talabalarini institutda yoshlarga yaratilgan sharoitlar va ularning har tomonlama kamol topishi va bilim olishlari uchun yaratilgan qulay sharoitlar haqida to'xtalib, talabalarni institut hayotida faol bo'lishga chaqirdi. Uchrashuvda talabalar tomonidan o'zlarini qiziqtirgan savollar bo'yicha atroflicha javob oldilar. Shuningdek, faol talabalar o'zlarining taklif va murojaatlari bilan o'rtoqlashdilar. Uchrashuv qizg'in savol-javoblar ruhida o'tdi.

TIQXMMI matbuot xizmati